



ISSN (E): 2181-4570

## Boshlang'ich sinf tarbiya fanini o'quvchilarining tarbiyalashda sharq allommalarining ma'naviy merosi orqali takomillashtirish.

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
4-BT-S-2022 guruh talabasi**

**Xudoyberdiyeva Ug'iloy Davron qizi**


**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflarda tarbiya darslari nazariy tarzda olib boriladi, natijada o'quvchilar nazariy bilimlarga ega bo'lib, boradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berishda o'qituvchilardan yuksak mahorat va sabr talab qilinadi. Har bir dars zamonaviy texnologiyalar va metodlar bilan tashkillashtirilganda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sadi.

**Tayanch so'zlar:** metod, pedagogik mahorat, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya, dars, metod, multimediya, o'qish-yozish uslubi, kinestetik uslub, eshitish uslubi, visual (kosmik) uslub.

**Kirish:** umumta'lim maktablarida tarbiya fanini amalga oshirishning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda tarbiya darslari orqali aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar olami bilan tanishtirish, ularda dastlabki bilim, ko'nikmalari, malakalari va kompetensiyalari, va kasblarni qadrlashga o'rgatib boriladi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir.

**Asosiy qism:** Islom Abdug'aniyevich Karimovning ta'lim to'g'risidagi islohotlari va barkamol insonni ma'naviy tarbiyalash masalalari mustaqillikning poydevorini mustahkamlashda o'zbekistonimizning buyuk davlatga aylanishida ta'lim tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish fuqorolarni zamonaviy ilm, fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Shunday ekan yosh avlod taqdirida komil inson taqdiri turibdi. Bolalarimiz merosini o'rganib idrok etmoqdamiz.

Ulug' bobokalonimiz Imom Al-Buxoriy, Imom-At-Termiziy Xo'ja Ahmad-Yassaviy, Xo'ja Bahoviddin-Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Abdulla Avloniy kabi bobokalonlarimiz allomalarimiz insoniy-ma'naviy yetuklikka chorlovchi, ta'lim tarbiyaga yo'naltiruvchi huquqiy hikmatlari qaytadan jaranglay boshladi. Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir degan





edilar. Tarbiya-pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya muhimdir.

Maktab misni tillo qilur,

Maktab sizni mullo qilur,

Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir degan edilar. Sh.Mirziyoyev Ta'lim va tarbiyaning asosi poydevori bu maktabdir, Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir degan edilar Sh.Mirziyoyev. Tarbiya – muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'sterish, uning ongi, xulgi- atvori dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya fani boshga o'quv fanlaridan tubdan farq qiladi. Fanni o'qitishda amaliy va nazariy mazmun ustuvorligi, barcha fanlar bilan bevosita uzviy va cham barchas bog'liqligi, mujassam fan ekanligi, yani uni o'qitishda o'ndan ziyod o'quv fanlari bilan aloqadorligi hamda bir necha mustaqil fanlarni qamrab olganligi. O'qitishda o'g'il va qiz bolalar tarbiyasining o'ziga xosligi, Tarbiya mahoratining shakllanishi bilim, ko'nikma va malakalarining o'ziga xosligi, o'quvchilarni ilk maktab yoshidanoq karb-hunarga tarbiyaga yo'naltirish ishlari amalga oshirilishi, kasb tanlashga tarbiya fani darsligining takomillanishi, Umum ta'lim maktab o'quvchilari tarbiya fanidan boshlab to umrlarining oxirigacha organadilar, o'rganish bilan birga ularning ish uslublari o'rganiladi. Keng manodagi tarbiya shaxsga jamiyatning tasir etishi ijtimoiy hodisa sifatida qaratadi. Tor manodagi tarbiya degan sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning, maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni tamoyillari qonuniyatlari uni tashkil etish masalalari, metodikasi shakllari, metodlari vositalari usullari va muammolarini o'rganadi.

### **Tarbiya tamoyillari**

1. Tarbiya maqsadining aniqligi
2. Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati
3. Axtiyoriylik tarbiyasi.
4. Yo'naltirilganlik tarbiyasi
6. O'z-o'zingni anglash tarbijasi
6. Jamoaviylik tarbiyasi
7. Insonparvarlik tarbiyasi





8. Ilmiylik tarbiyasi
9. Pedagogik jarayonning hayot va amaliyot bilan bog'liq tarbiyasi
10. Azchillik tarbiyasi
11. Uzluksizlik tarbiyasi.
12. Tizimlilik tarbiyasi
13. ko'rsatmalilik tarbiyasi.
14. Estetik g'oyalar ustuvorligi tarbiyasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama tarbiyalashimiz lozim, bunda tarbiya haqida, tarbiyaning murakkabligi haqida "Amir Temur" bobomiz shunday degan edilar: "Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chuqurroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmand kerakligiga ishonch hosil qildim" desalar, "Abdulla Avloniy bobomiz esa tarbiyani oiladan shakllantirib borish kerakligi, buning uchun ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerakligi haqida aytib o'tganlar. Abdulla Avloniy bobomizning o'gitlari va hikmatli gaplari bolalar qalbini balki kattalar qalbini ham tarbiyaga yetaklay oladi.

"Tarbiya - pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir". Tarbiyaning asosi bu har bir oilada shakllanadi.

"Otasini og'ritgan el ichida xor bo'lar.

Onasini og'ritgan parcha nonga zor bo'lar".

Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy g'oyalar rivojiga bir nazar solsak, qanchalik ma'naviy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz. Ular tubsiz ummon bitmas tunganmas boylikdir. Har bir inson bu ummonga sho'ng'iganda o'zining fe'l-atvorí, dunyoqarashi, bilim saviyasi va boshqa xususiyatlariga qarab tarbiyalanishi muqarrardir.

### **Tarbiya metodlari:**

- 1 Shaxs ongini shakllantiruvchi metod.
- 2 Ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari.
- 3 Xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodi.
- 4.O'z-o'zini tarbiyalash metodi.

### **Tarbiya turlari:**

1. Aqliy tarbiya jarayoni.
2. Jismoniy tarbiya jarayoni.
3. Axloqiy tarbiya jarayoni.





4. Estetik tarbiya jarayoni.
5. Ekologik tarbiya jarayoni.
6. Fuqorolik tarbiya jarayoni.
7. Mehnat tarbiya jarayoni.
8. Huquqiy tarbiya jarayoni

Bulardan axloqiy tarbiyani misol qilib olsak, bu axloqiy tarbiya “Axloq”, „Xulq” va atvor soʻzlari arabcha soʻz boʻlib ular oʻzbek tilida ham, oʻz maʼnosida qoʻllaniladi. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar boʻlishga oʻrgatadi. Axloqiy tarbiyada, yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq taʼlimi tizimida oʻqitish tarbiyalanuvchilarining axloqiy mukammallashtirishi bilan bogʻliq boʻladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi dars paytida taʼlim bilan bir vaqtda tarbiyalab borishini, oʻquvchilarning ongiga singdirishini, uning natijasida qanday koʻnikma, bilim va malakalarini egallashlarini anigʻ bilish kerakligi nazarda tutilgan.

**Natija va muhokama:** Oʻquvchilarni tarbiya faniga qiziqtirishning yana bir usuli bu zangori ekranlarda koʻrsatadigan tarbiya haqidagi vedioroliklarni misol qilib olishimiz mumkin. Oʻquvchilar eshitgandan koʻra, koʻrgan narsasini xotirasida yaxshi saqlaydi. Oʻqituvchi darsni yaxshi tashkillashtirish uchun bir qancha, qulayliklar yaratilgan, har bir darsning multimediyasi va video darslarni misol keltirishimiz mumkin. Har bir oʻquv yilida va barcha sinflarda tarbiya jarayoni va turlari shu tartibda olib boriladi. Birinchidan, oʻquvchilar maʼlum nazariy bilimlarga ega boʻladilar, ularning fanlararo tarbiya xususiyatlarini, ularning hayotda qoʻllanilishi bilan birga oiladan va maktabdan oladigan bilimlari bilan birga tarbiyalanib boraveradilar. Eshitish orqali oʻrgatish uslubi matnlarni, hikoyalarni, audio materiallarni yaxshi koʻradigan oʻquvchilarga mos keladi. Aksariyat oʻquvchilarda eshitish sezgi aʼzosi yaxshi rivojlangan boʻladi, ular filmlar, videoroliklar va boshqalarni tomosha qilish jarayonlarda sodir boʻlgan harakatlarni emas, koʻpincha eshitgan narsalarini eslab qoladilar. Oʻquvchilarga darsni turli oʻyin va musobaqa tarzida tashkillashtirib oʻtilganda bolalarning darsga boʻlgan diqqati jamlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar hayotiga nazar tashlasak, ularda tarbiyaning yaxshi yoʻlga qoʻyilganligining guvohi boʻlamiz. Buning uchun avvalo, oʻsib kelayotgan yosh avlodni taʼlim olishiga befarq boʻlmasligimiz lozim. Ayni vaqtda maktab darsliklarining yangilanishi, yangicha tarbiya kitoblarining





ISSN (E): 2181-4570

kirib kelishi ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi va jahon tajribalariga asoslanganligini his qilgan holda o'z ishimizga mas'uliyat bilan yondoshmog'imiz zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020 yildagi. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" gi 422-son qarori

2. N. Isatova, Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari 2-sinf darslik. T. "G'afur G'ulom" 2020y.

3. D. Ro'zieva Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari. 3-sinf darslik.

4. Tarbiya baxt va muvaffaqiyat sirlari fanidan 1-4-sinflar uchun taqvimiy mavzu rejalar.

Internet saytlari:

5. [http:// Ziyonet](http://Ziyonet).

6. <http://edu.uz>

7. [www.nad lib, uz](http://www.nadlib.uz)

8. <http://teoriya.ru>

